



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida yong‘in xavfsizligini ta’minlashga mas’ul shaxslarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 30-sentabrdagi “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Yong‘in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi 649-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) yong‘in xavfsizligi uchun mas’ul shaxs etib Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandis X.Xamidov tayinlansin.

2. Vazirlik binosining barcha qavatlarida yong‘in xavfsizligi uchun mas’ul shaxslar etib quyidagilar belgilansin:

I qavat va binoning yerto‘la xonalariga - Xo‘jalik bo‘limi bosh mutaxassisi - S.Maxmayev;

II qavat - Xo‘jalik bo‘limi kompyuterlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimi - K.Xabibullayev;

III qavat - Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi - N.Sayfiddinov;

IV qavat - Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi - E.Axmadaliyev;

V qavat - Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ish haqini moliyalashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi - J.Amonov;

VI qavat - Infratuzilmani rivojlantirish va binolarni ekspluatatsiya qilish bo‘limi yetakchi mutaxassisi - M.Mamajonov;

VII qavat - Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi - Q.Almardanov;

VIII qavat - Protokol bo‘limi bosh mutaxassisi - X.Qahhorov;

IX qavat - Axborot tahlil bo‘limi boshlig‘i - A.O‘ktamov.

3. Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandis (X.Xamidov) bir oylik muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi 649-son qarori bilan tasdiqlangan Yong‘in xavfsizligi qoidalariga muvofiq vazirlikning yong‘in xavfsizligi bo‘yicha xodimlarni evakuatsiya qilish sxemasi ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta’minlasin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalari direktorlari, 10 kun muddat ichida binolarda yong‘in xavfsizligini ta’minlashga mas’ul shaxslarni tayinlash bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rsin.

5. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “12”- iyul
203-son